

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT
INSTITUTI**

«UMUMIY PEDAGOGIKA» fanidan

*(JN, ON va YaNlar uchun savol-javoblar, mustaqil ish topshiriqlari,
test va yozma ish nazoratlari bo'yicha)*

USLUBIY QO'LLANMA



QARSHI - 2015

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

MUHANDIS-TEXNIKA FAKULTETI

«Kasb ta'limi» kafedrası

«UMUMIY PEDAGOGIKA» fanidan

*(JN, ON va YaNlar uchun savol-javoblar, mustaqil ish topshiriqlari,
test va yozma ish nazorat turlari bo'yicha)*

U S L U B I Y Q O ' L L A N M A

QARSHI – 2015 yil

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Davlat ta'lim standarti bo'yicha bakalavrlar tayyorlash saviyasi va mazmuniga majburiy talablar hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi tug'risida Nizom» ga asosan tuzilgan bo'lib, talabalarning «Umumiy redagogika» fanini mustaqil va mukammal o'rganishida muhim ahamiyatga ega.

Bunda «Uumiy pedagogika» fanidan mustaqil tayyorlanish uchun ON-1, ON-2 va YaN bo'yicha og'zaki, yozma, test nazorati savollari, fanning mazmunini ifodalovchi mavzular bo'yicha savol-javoblar hamda JN, ON, YaNlar bo'yicha talabalarning mustaqil ish topshiriqlari mavzulari batafsil yoritilgan.

Uslubiy qo'llanma «iqtisodiyot» fakultetining KT(iqtisodiyot) yo'nalishi II va III kurs talabalariga mo'ljallangan.

Tuzuvchi:

QMII «Kasb ta'limi» kafedrası
katta o'qituvchisi J.U.Shonazarov

Taqrizchilar:

QDU “Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim”
kafedrası dotsenti Sh. Nurullaeva,
QMII «Kasb ta'limi» kafedrası
dotsenti Z. Botirov

Mazkur uslubiy qo'llanma QMII «Kasb ta'limi» kafedrası majlisida (Bayon № 1 «28» 08 2015 y) va «Muhandis-texnika» fakulteti Uslubiy komissiyasi yig'ilishi (Bayon № « » 2015 y) da ko'rib chiqilgan va chop etishga ruxsat etilgan.

© Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, 2015 y.

KIRISH

Mustaqil Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida bugungi kun talablariga javob beradigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim tarbiya sohasidagi islohatlarning o'tkazilishi zahirida bo'lajak mutaxassis kadrlarning salohiyati va bilim saviyasi yaxshilanmoqda. Aynan shu maqsadlarni ruyobga chiqarishda «Umumiy pedagogika» fanining vazifasi nihoyatda muhim, chunki pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotni bilishga, mehnatga tayyorlash uchun xalq va davlat oldida javob beradigan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanadigan, shuningdek bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir.

O'zbekistonning kelajaki va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va ma'naviy yetukligiga bog'liq. Shu jihatdan qaraganda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi islohotlar muhim o'rin tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni milliy tajribaning tahlili va ta'lim asosida yuksak umumiy va mutaxassislik madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Bunday kadrlar Oliy ta'lim tizimining bakalavr va magistr tayyorlash bosqichlarida amalga oshiriladi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasining istiqloli davrida ta'lim-tarbiyaning roli yanada oshib bormoqda.

Ma'lumki, pedagogika fani faqat yosh avlodni shakllantirish uchungina zarur bulib kolmay, balki uning roli jamiyatning xamma sohalarida muxim bo'lmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda yoki xalq xo'jaligining biror - bir sohasida kompleks tarbiyaviy tadbirlarini kullamasdan turib biror bir natijaga erishish mumkin emas. Oliy o'quv yurtlarida talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishni baholash muntazam ravishda olib boriladi. Fan bo'yicha talabaning semestr davomida o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

“Umumiy pedagogika” fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari

Mustaqil ishining maqsadi-talabani nazariy va amaliy tayyorgarligini aniqlash, uning fikrlash qobiliyatini va olingan bilimlarining chuqurliligini va sifatini belgilash xisoblanadi.

Mustaqil ishining maqsadidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

“Umumiy pedagogika” fanidan tanlangan mustaqil ishi mavzusi bo'yicha tarbiyaviy muammolar mohiyatini nazariy va amaliy asoslash va mazmunli yoritilishi;

Umumiy pedagogika tushunchalarni teran va chuqur mantiqiy mushoxada qilishi;

- milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraning asosiy qoidalari xamda ta'lim-tarbiyani to'g'ri shakllantirish asosida xozirgi zamon rivojlangan malakali o'qitishni shakllantirish va rivojlantirishning dolzarb muammolarini singdirish;

- ta'lim va tarbiyaviy munosabatlar to'g'risida amaliy ko'nikmalar xosil qilishi;

- Prezident Islom Karimov asarlarini, Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan ta'lim-tarbiyaga tegishli qonunlarni va Vazirlar Maxkamasi chiqargan me'yoriy xujjatlarni ishda o'zlashtirishi;

- internet ma'lumotlari, xisobotlar va xujjatlarni taxlil qilish;

ishlab chiqarish va xizma ko'rsatish xamda ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan yo'l-yo'riq, xulosalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish.

- Umumiy pedagogikaning nazariy va amaliy mohiyatini yoritish

Mustaqil ishini bajarish jarayoni o'quv jarayonning ajralmas qismi bo'lgani uchun to'g'ri tashkil etish, yoritilayotgan mavzuning sifatli bayon etilishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun Mustaqil ishini bajarish davomida talaba o'z mexnatini quyidagi bosqichlar bo'yicha to'g'ri taqsimlashi katta ahamiyatga ega:

- Mustaqil ishi mavzusini tanlash;

axborot uslubiy ta'minoti (adabiyotlar, internet) ma'lumotlarini yig'ish va ularni o'rganish;

- Mustaqil ishi mavzusi rejasini tuzish;

mavzuga oid turli ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash;

- Mustaqil ishi matnini yozish;

- Mustaqil ishini rasmiylashtirish;

- Mustaqil ishini ximoyasi;

- Mustaqil ishini bajarishda talaba o'z ustida ishlashi bilan bir qatorda Mustaqil ishi xabarlarini bilan maslaxatlashishi va tegishli ko'rsatmalar asosida faoliyat ko'rsatishi zarur xisoblanadi.

Mustaqil ishi mavzusini tanlash

“Umumiy pedagogika” fanidan mustaqil ishini muvaffaqiyatli bajarilishining muhim omili – bu talabani o'z qiziqishi va qobiliyatiga qarab mos mavzuni tanlashi xisoblanadi. Shuning uchun ushbu bosqichda talaba mavzu tanlashda sinchkov va ma'suliyatli bo'lishi lozim.

Mustaqil ishi mavzulari kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Mavzular soni talabalar sonidan ko'p bo'lishi kerak, ularning yo'nalishi o'quv dasturi doirasida va talabani qobiliyati hamda imkoniyatlari darajasida bo'lishi kerak.

Mustaqil ishi mavzusi talabalarni nazariy bilimlarini mustahkamlashga va ijodiy fikrlashga qaratilgan bo'lishi bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib belgilanishi kerak.

Mustaqil ishi xabari talabaga tanlangan mavzu bo'yicha Mustaqil ishi topshirig'ini rasmiylashtiradi va kafedra mudiri tasdiqlagandan so'ng topshiriqni talabaga beradi.

Mustaqil ishi topshirig'ida talabani ismi sharifi, mutaxassisligi, kurs, guruxi, fan nomi, mustaqil ish mavzusi, topshirish muddati bilan bir qatorda namunaviy reja (kirish, asosiy qism, xulosa va boshqalar) hamda adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar va shu kabilar aks etishi lozim.

Mustaqil ishini bajarish jarayonida mustaqil ishi mavzusini o'zgartirish yoki boshqa mavzu tanlanishiga ruxsat etilmaydi.

Mustaqil ishi mavzusini tanlash tartibi gurux jarnalidagi ismi, sha'rifi raqami bo'yicha taqsimlanadi. Guruh talabasi tartib raqami asosida uchta mavzudan ya'ni 1, 2, 3, lardan ixtiyoriy birini tanlashi mumkin. Agar kursda guruhlar soni ikkitani tashkil etsa ushbu guruhlar alohida mavzular beriladi. Bir mavzuni ikkita talaba yozishi mumkin emas

Axborot uslubiy ta'minotini yaratish va ularni o'rganish.

Talaba mustaqil ishi mavzusini biriktirish to'g'risida ariza bergandan sung va kafedra uni tasdiqlagandan so'ng rahbar bilan maslaxatlashib adabiyotlar to'plashiga kirishishi kerak. Bunda faqat darslik, balki boshqa fanlarni o'rganish davomida ko'rsatilgan adabiyotlar, statistik va internet ma'lumotlari, qonunlar, me'yoriy xujjatlar va boshqalarni ham o'rganishi lozim.

Undan so'ng ularning ichidan mustaqil ishi mavzusiga bevosita aloqador bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish va ularni topib bir qator tanishib chiqishi kerak, chunki boshlang'ich tanishuv natijasida talaba mustaqil ishi rejasini mustaqil ravishda tuzadi.

Adabiyotlar va internet ma'lumotlari bilan ishlashni mamlakatimizdagi ta'lim qonunchiligiga ta'lluqli bo'lgan qonun va me'yoriy xujjatlarni o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Xar tomonlama mukammal yoritilgan va ilmiy ijodiy yondoshilgan mustaqil ishini bayon etish uchun iqtisodiy va tarbiyaviy, pedagogik qonuniyatlarni bilish va ularni qo'llash katta ahamiyatga ega.

Mustaqil ishini bajarishda faqat uslubiy qo'llanmalarda va mustaqil ishi topshirig'ida tavsiya qilingan adabiyotlardan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, imkoni boricha mustaqil xolda tanlangan adabiyotlarga asoslanish lozim, xatto xorijiy adabiyotlardan ham foydalanish ishni mazmunini boyishiga va yanada mukammal bajarilishiga yordam beradi.

Mustaqil ishi matnini yozish

Mustaqil ishini bajarishda uni yozish va rasmiylashtirish muhim va ma'suliyatli bosqich hisoblanadi.

Kirish qismida talaba tanlagan mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, ahamiyati, uni o'rganish darajasi, metodlari, yangiligi, muammoni o'rganishga qaratilganligi, va Mustaqil ishi bo'yicha o'z oldiga qo'ygan masalalar mazmunining qisqa (2-3 bet) bayon etadi.

Asosiy qismda belgilangan savollarni yoritishda masalaga uzviy bog'liq bo'lgan nazariy bilimlar bilan bir qatorda talaba tomonidan to'plangan materiallar, statistik ma'lumotlar, pedagogik tushunchalar mohiyati yoritiladi va taxlil qilinadi. Olingan natijalar, yangiliklar, g'oya va fikrlar ilmiy jihatdan asoslanadi va o'rganilgan adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar va boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar to'la tahlil qilinadi. Ushbu yo'nalishda bajarilgan ishlarning mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasi ham bayon etilishi maqsadga muvofiq keladi. Agar talaba mavzu bo'yicha olgan natijalarni tanqidiy baxolay olsa Mustaqil ishining qiymati yanada oshadi. Asosiy qismda mavzu mohiyati yanada kengroq ochishda mavzuga doir chizmalar va jadvallarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Nazariy tomondan o'rganilayotgan masala chuqur yoritilgandan so'ng mustaqil ishini bajaruvchi nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan o'zaro bog'lay olishi kerak. Ish bo'yicha berilayotgan takliflar asosli bo'lishi va takliflar aniq, lo'nda va tushunarli qilib bayon qilinishi kerak.

Talaba mustaqil ishi matnini yozishda adabiyotlar va manbalardan olingan citatalar va mualliflarning qarashlari qo'shtirnoq ichida berilishiga e'tibor berilishi lozim.

Xulosa qismida mustaqil ishining barcha qismlari doirasida bajarilgan ishlarga umumiy yakun yasaladi. Ushbu mustaqil ishi doirasida erishilgan asosiy natijalar xulosa va takliflar, tavsiyalar ko'rsatib o'tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzishda ishning xulosa qismidan keyin keltiriladi, ro'yxatga faqat ishni yozish jarayonida muallif tomonidan foydalanilgan adabiyotlar, qonunlar, qarorlar, maqolalar, tezislar, avtoreferetlar, jurnallar, gazetalar va x.k.lar kiritiladi.

Amaldagi «Xujjatlarni bibliografik ro'yxatga olish» davlat standartiga muvofiq kurs ishlarida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida quyidagilar keltiriladi:

- kitob, monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalar uchun muallif (lar) ning familiyasi, ismi, va otasining ismi bosh xarflari, kitobning nomi, nashr joyi (shaxar), nashriyot nomi, nashr yili, betlar ;
- to'plamdagi maqolalar va tezislari uchun muallif (lar) ning familiyasi, ismi va otasining ismi bosh xarflari, maqola nomi, to'plamning nomi, nashr joyi (shaxar) nashr yili, betlar to'plamdagi maqola nomi to'plam nomidan // belgisi bilan ajratiladi.
- jurnaldagi maqolalar uchun muallifning familiyasi, maqola nomi, jurnal nomi yili, betlari, maqola nomi ham jurnal nomidan // belgisi bilan ajratiladi.

Mustaqil ishida foydalanilgan manbaalar adabiyotlar ro'yxatidan alfavit bo'yicha joylashtiriladi. Agar talaba ayrim ma'lumotlarni internetdan olgan bo'lsa, muallif va ishning nomi keyin WEB sayti ko'rsatiladi.

Mustaqil ishini yozish jarayonida talaba adabiyotlarida keltirilgan boshqa olim va mutaxassislarning fikrlarini keltirish mumkin. Bunday xollarda matnda ushbu adabiyotlardan foydalanilganlik belgisi qo'llaniladi.

Ayrim vaqtlarda mavzuga oid qonunlar, xukumat qarorlari va me'yoriy xujjatlardan aynan ko'chirmalar keltiriladi. Bunday hollarda satr osti izohi beriladi.

Satr osti izohlari sahifa so'ngida berilib, matnda har bir sahifa uchun ketma – ketlik asosida raqamlanadi yoki yulduzchalar bilan belgilanadi.

Ilovalar qismida Mustaqil ishi mavzusiga oid chizmalar, jadvallar, klaster texnologiyasi asosidagi kategoriyalar va turli tushuncharni keltirib o'tishi yoki matn tarzida atamalar asosida izohlarni keltirib o'tishi lozim. Ilovalar qismida mustaqil ishi mavzusiga tegishli boshqa chizmalardan ham foydalanish mumkin.

Mustaqil ishini yozishda talaba avallo raxbarning ko'rsatma va maslahatlariga rioya etishi zarurdir.

Mustaqil ishini rasmiylashtirish

Mustaqil ishini rasmiylashtirish belgilangan talab va standartlarga javob berishi kerak.

Mustaqil ishi matni sahifaning ma'lum chegaralarida joylanishi chizma va jadvallarni rasmiylashtirilishi, bir xil formatdagi oq qog'ozlardan foydalanilishi ishni sifatli va umumiy talablar bo'yicha yoritilishiga olib keladi.

Mustaqil ishi asosan A4 (210x297 mm) formatidagi oq qog'ozlarga ko'k tushda (ruchkada) tushunarli tarzda, qisqartirishlarsiz, aniq va ravon tilda o'z qo'li bilan davlat tilida (rus guruxlarda rus tilida) yoziladi. Mustaqil ishi xajmi 15 -20 betni tashkil etishi lozim. Xar bir sahifani chap tomonda 30 mm, o'ng tomondan 15 mm tepa va pastki tomondan 20 mm qoldirilgan holda yoziladi. Mustaqil ishi matnlari qog'ozning bir tomoniga xar sahifaga 25- 30 qator yoziladi. Har qatorda 7-8 ta so'z joylashishi mumkin. Barcha satr osti izohlari qaysi sahifaga tegishli bo'lsa, o'sha sahifada keltiriladi.

Har bir qism, kirish asosiy va hulosa qismlari, ilovalar yangi sahifalardan boshlanadi. qismning nomi va matn orasi yaqqol ajralib turishi kerak. qismdagi sarlovhalar qismning tartib raqami bilan boshlanib, unda so'zlarning bo'g'in ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sahifa tartib raqami sahifaning pastda o'rta-qismida keltiriladi. Mustaqil ishida keltirilgan qismlar, shuningdek ilovalar ham sahifalanadi. Jild varag'i 1-bet sanaladi, unga tartib raqami qo'yilmaydi.

Mustaqil ishi qismlari quyidagicha joylashtiriladi: jild varag'i, mundarija, kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar.

Ilovada turli xujjatlar, katta xajmdagi chizmalar, jadvallar va shu kabilar beriladi. Mustaqil ishi yuzasiga taqriz uchun oq qog'oz qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jild (titul) varag'i mustaqil ishining 1- beti bo'lib, unda Vazirlik, oliy o'quv yurtining nomi fakultet va kafedra, Mustaqil ishi mavzusi, ta'lim yo'nalishi, kursi, guruxi, muallifning familiyasi, ismi va sharfi, ilmiy raxbarning ilmiy unvoni va darajasi, familiyasi, ismi va sharifi keltiriladi. (1-ilova).

JN, ON va YaN lar bo'yicha mustaqil ish va topshiriqlar

M A V Z U L A R I

№	Mustaqil ish va topshiriqlarning nomi	Tavsiya etilgan adabiyotlar
1.	Ta'lim jarayoniga qo'yiladigan talablar	8, 16, 17, 21, 22
2.	Zamonaviy shaxs tarbiyasi	7, 16, 17, 19, 24
3.	Diniy tarbiyaning ahamiyati	13, 14, 15, 19
4.	Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llashning samara ahamiyati	8, 16, 17, 21, 22
5.	Xorijiy mamlakatlardagi oliy va kasb – talimi tizimlari	13, 16, 17, 26, 32
6.	Shaxsning ma'naviy rivojlanishi asoslari	7, 8, 11, 13, 22
7.	Al-Buxoriyning xadis ilmini rivojlanishidagi xizmatlari	13, 15, 16, 17
8.	At – Termiziyning xadis ilmiga qo'shgan hissasi	8, 13, 16, 19, 22
9.	Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari	6, 7, 13, 22, 32
10.	Abu Ali Ibn Sinoning pedagogikaga qo'shgan hissasi	15, 16, 17, 22
11.	Amir Temurning ma'rifiy qarashlari va uni pedagogikaga tutgan o'rni.	8, 13, 17, 19, 20
12.	Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati	16, 17, 22, 27
13.	Jadidchilik harakatini vujudga kelishi	5, 16, 19, 21, 29
14.	M. Behbudiyning ijtimoiy-pedagogik faoliyati	8, 12, 13, 16, 22
15.	Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari	1, 9, 16, 17, 19
16.	Ya.A. Komenskiyning ijtimoiy pedagogik faoliyati	8, 13, 16, 20, 32
17.	Shaxs va uni rivojlanishi haqida tushuncha	13, 19, 22, 27
18.	Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	10, 13, 14, 16, 24
19.	Didaktikaga umumiy ta'rif	6, 14, 16, 18, 22
20.	XIV-XVI asrlarda maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.	4, 10, 16, 23, 24
21.	Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.	6, 13, 16, 20, 32
22.	Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari.	9, 16, 17, 19, 22
23.	Pedagogikaning tarmoqlari.	7, 8, 13, 16, 19
24.	Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.	8, 11, 13, 22
25.	Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar va ularning tavsifi.	1, 7, 9, 19, 22
26.	Muammoli ta'lim nazariyasi.	16, 17, 21, 23
27.	Dasturlashtirilgan ta'lim nazariyasi.	8, 16, 17, 22, 27
28.	Pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati	10, 16, 18, 29
29.	Ta'lim metodlari va ularning tasnifi	13, 16, 19, 23, 24
30.	Ta'lim vositalari va shakllari	2, 3, 7, 9, 10
31.	Muammoli ta'lim texnologiyalari	5, 8, 17, 19, 28
32.	O'yinli texnologiyalar	4, 10, 16, 23, 24
33.	Pedagogik mahoratning mohiyati va tuzilishi	13, 19, 22, 27
34.	Oila-pedagogik o'zaro munosabatlar, shaxs tarbiyasi va kamolotining sub'ekti	10, 13, 14, 16, 24
35.	O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini boshqarish	6, 14, 16, 18, 22
36.	O'zbekiston Respublikasida «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari ta'lim tizimini boshqarish haqida	4, 10, 16, 23, 24
37.	Ta'lim tizimini boshqarish organlarining vakolatlari	6, 13, 16, 20, 32
38.	Ta'lim muassasasini boshqarish	9, 16, 17, 19, 22
39.	O'zbekistonda ta'limning rivojlanish istiqbollari	7, 8, 13, 16, 19

TALABALARNING «UMUMIY PEDAGOGIKA» FANINI O'RGANISHI VA O'ZLASHTIRISHI BO'YICHA

SAVOL-JAVOBLAR

1. Pedagogika qanday fan, u nima haqida bahs yuritadi?

Pedagogika – inson tarbiyasi tug'risidagi, yoshlarni va kattalarni tarbiyasi to'g'risidagi fan. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fan.

Pedagogika grekcha «paydagogik» so'zidan olingan bo'lib, «bola yetaklovchi» degan ma'noni bildiradi. Mustaqil pedagogika fani XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida vujudga kelgan. Pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandir.

2. Nima uchun pedagogika fanini hamma o'rganishi bilishi lozim?

Shuni unutmash kerakki, pedagogika fani yutuqlarisiz jamiyatni olg'a siljitish g'oyat mashaqqatli kechadi. Pedagogika fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o'rganish lozim.

Hozirgi kunda pedagogikani (mutaxassislikdan qat'iy nazar) hamma bilish lozim bo'lgan fan deb hisoblash lozim, chunki insonlar hayot faoliyatlari davrida ta'lim-tarbiya ishlari bilan ma'lum darajada shug'ullanishga majburlar.

3. Pedagogika fani qaysi fan negizida paydo bo'lgan?

Pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'lgan. Qadimdan inson tarbiyasiga oid bo'lgan fikrlar, qarashlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan.

4. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishiga katta hissa qo'shgan olim?

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi katta bo'ldi. Uning «Buyuk Didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi.

5. Qachon O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi.

XVIII asrga kelib O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. Asrimizning boshlarida vatandoshlarimizdan M. Bexbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, A. Fitrat, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifatparvar jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usul maktablari tuzishda, darsliklar yaratishda, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

6. Maktab so'zining ma'nosi nima?

Hayotning barcha yo'nalishlaridagi tajribalar maktabning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Maktab so'zi yunon tilida “dam olish, mehnatdan so'ng hordiq chiqarish” degan ma'noni anglatadi. Qadimgi Gresiyada maktab deb tajribaliroq, bilag'onroq odamlarning bolalari va usmirlar bilan suhbatlashishini aytishgan.

Keyinchalik “maktab” termini maxsus o'quv-tarbiya muassasalari sifatida ishlatila boshlagan va hozirgi vaqtda ham shu ma'noda ishlatiladi.

7. Tarbiyaning ijtimoiy hodisa ekanligini izohlab bering?

Ma'lumki, pedagogikaning asosiy tushunchasi, predmeti bo'lgan tarbiya ijtimoiy hodisadir. Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar o'zlari turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Demak, tarbiyalash avvalo ijtimoiy hayot jarayonida yig'ilgan tajribalarni avlodlarga yetkazib berishdir. Tajriba ijtimoiy hodisa sifatida inson shaxsini tarkib toptirish uni hayotga tayyorlash va shunday bo'lib qoladi.

8. Pedagogika fanlari tizimiga qaysi fanlar kiradi?

Hozirgi vaqtda pedagogika bir necha tarmoqlarga bo'lingan. Jumladan, umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida bahs yuritadi), maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanadi), madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o'rganadi), hunar-texnika ta'limi pedagogikasi, *kasb pedagogikasi* (ishlab chiqarish), (turli kasblarning o'rganishning umumiy masalalarini); *qiyosiy pedagogika* (G'oyalarni taqqoslab xulosa chiqarish masalalarini); *xalq pedagogikasi* (mazkur xalqi ta'lim tarbiyasi, maktabi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, ahloq odobi singarilarni); *ijtimoiy pedagogika* (barcha yoshdagi fuqarolarni tarbiyalashning zama'naviy imkoniyatlari, vositalari va manbalarini); *tibbiyot pedagogikasi*; harbiy pedagogika kabi tizim tarmoqlari mavjud.

9. Umumiy pedagogika nimani o'rganadi?

Umumiy pedagogika (insonga, shaxsga ta'lim tarbiya, ma'lumot berish shakli, mazmuni, usullari va ularni shakllantirishning, tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi va amaliyotda qo'llashga o'rgatadigan);

10. Pedagogika tarixi nimani o'rganadi?

Pedagogika tarixi turli tarixiy davrlarda maktablar ta'lim tarbiyasi, pedagogik g'oyalarning mazmuni, rivojlanish masalalarini o'rganadi.

11. Maxsus pedagogika nima?

Maxsus pedagogika (Defektologiya) Pedagogika faqat sog'lom o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi bilangina emas, balki kamolotda qusuri bor bolalar ta'lim-tarbiyasini ham o'rganadi. Bunday tarmoqlarni maxsus pedagogika deb yuritiladi.

Maxsus pedagogika tizimiga oligofrenopedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish), lagapediya (tili yassi, tili chuchuk bolalarni o'qitib tarbiyalaydigan pedagogika), tiflo pedagogika (ko'r va yaxshi ko'rmaydigan bolalarni tarbiyalash), surdo pedagogika (kar va go'ng bolalarni o'qitish va tarbiyalash) kabi fanlar kiradi.

12. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasini izohlang?

Pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U ham boshqa fanlar singari ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanadi va mazmunan boyib boradi. Tarbiya maqsad va vazifalarini inson shaxsining har tomonlama rivojlanish qonuniyatlarini ishlab chiqarish jarayonida tarix, falsafa, iqtisod, sosiologiya, etika, estetika, umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, kasb psixologiyasi, oila psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, odam psixologiyasi, harbiy psixologiya va fiziologiyasi bolalar gigienasi, pediatriya, medisina, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqa qiladi.

13. Pedagogika fanining ob'ekti va predmeti nima?

Pedagogika fanining ob'ekti asosan maktab o'quvchilaridir, predmeti esa o'quvchi (talaba)larga berilayotgan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir. Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beradi.

14. Pedagogika fanining asosiy tushuncha (kategoriya)lariga nimalar kiradi?

Pedagogika faniga tavsif berilganda «ta'lim», «tarbiya», hamda «ma'lumot» degan so'zlarni ishlatdik. Bu so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib bir-birini to'ldiradi. Shunday qilib pedagogikaning asosiy kategoriyalari (tushunchalari) quyidagilar: Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, shaxsning kamol topishi, maktab, o'quvchi, o'qituvchi, «usul», «intizom», «irsiyat», «muhit», «direktor», «talaba»

15. Ta'lim deb nimaga aytiladi?

Ta'lim deb – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, ularning bilish qobiliyatini o'stiradigan,

dunyoqarashini shakllantiradigan jarayondir. Ta'lim o'qituvchi tarbiyasi (ta'limni) rahbarligida muayyan belgilangan vaqtda olib boriladi.

16. Tarbiya deb nimaga aytiladi?

Tarbiya deb – yosh avlodni ma'lum faoliyatga tarbiyalash uchun ularga ma'lum maqsadga qarata planli va sistemali ta'sir etishga aytiladi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Tarbiya ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi.

17. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi (kamol topishi) deganda nimani tushunasiz?

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi (kamol topishi)deb – ta'lim –tarbiya natijasida, shuningdek irsiyat va muhitning ta'siri natijasida odamning inson mohiyatiga ko'tarilishi va inson shaxsining aqliy, aqloqiy, jismoniy jihatdan mukammallashiga aytiladi. Insonni ta'lim-tarbiya orqali, tarbiyaviy ta'sir natijasida hamda irsiyat va muhitning ta'sirida uning shakllanishi, rivojlantirish mumkin. Bu jarayon insonning butun hayot yo'li davomida olib boriladi va ta'sir natijasini ko'rsatadi.

18. Malaka nima?

Malaka – ongli, xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Yoki malaka – faoliyat jarayonida uning biror bir elementini (ongning eng kam nazorati ostida) bajarish qobiliyatidir. Ko'nikma, malakalar maqsadga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida shakllanadi.

19. “Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir”. Imsiz inson mevasiz daraxt kabidir degan fikr qaysi pedagog-olim ta'kidlab o'tgan?

A.Avloniy.

20. Ma'lumot deb nimaga aytiladi?.

Ma'lumot deb – ta'lim-tarbiya natijasida, hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalar, dunyoqarashlar majmuiga aytiladi. Ta'lim, tarbiya va ma'lumot uyg'unlashgan yagona jarayon bo'lib, o'qituvchi-tarbiyachi ularning shakllanishida yetakchilik qiladi.

21. Bilim nima?

Bilim – odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan, umumlashgan tajribasidir. Bilimlar insoniyat tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini faol o'zlashtirishi jarayonida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va ob'ektiv dunyoni chuqurroq anglashga hamda o'zlashtirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit asoslangan majmuasidir.

22. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlariga nimalar kiradi?

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bish yo'llari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz. Pedagogika quyidagi ilmiy-tadqiqot usullariga ega:

- 1) Kuzatish usuli; 2) suhbat usuli;
- 3) Adabiyotlar bilan ishlash usuli; 4) Test, so'rovnomalar usuli;
- 5) Maktab hujjatlarini o'rganish; 6) Eksperiment, sinov usuli;
- 7) Matematik metod; 8) Tadqiqot natijalari va ularni amalga tadbqiq etish, anketa usullari va h.k;

23. Pedagogik eksperiment deganda nimani tushunasiz?

Eksperiment – so'zi lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish» ma'nosini anglatadi. Eksperimental – tajriba ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbqiq jarayonlarini tekshirish aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Eksperiment usuli sharoitga qarab 3 xilda o'tkaziladi:

- 1) Tabiiy eksperiment. 2) Laboratoriya eksperimenti.
- 3) Amaliy tajriba.

2.4. Anketa nima?

Anketa metodi. Anketa fransuzcha so'z bo'lib, tekshirish degan ma'noni anglatadi. Anketa metodi o'quvchilardan so'rash metodi bo'lib, u o'quvchilar tarkibining sifati to'g'risida kerakli

ma'lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun, shuningdek kasbga yo'llashni belgilash uchun ma'lum bir shaklda o'tkaziladi.

25. Hadis nima, mohiyatini tushuntiring?

Hadislar islom dini ta'limotida muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimdan keyin turadigan ikkinchi asosiy manba hisoblanadi. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom hayot vaqtlarida hadislar yozma qayd etilmagan. Ul zot o'sha paytda «Nozil bo'layotgan Qur'on oyatlari bilan mening hadislarim aralashib ketadi, odamlar o'rtasida tushunmovchiliklar paydo bo'ladi» degan o'yda hadislarini yozib olishni man qilganlar. Saxobalar va tobeinlar o'z quvvayi xofizlariga ishonganlar. Ular yodlagan hadislar asosan og'zaki tarzda el orasida tarqalgan.

Umaviylarning sakkizinchi xalifasi Umar ibn Abdul Aziz ibn Marvon (681-720 y) qo'l o'rdi. Shunday qilib, VIII asrning birinchi choragida Muhammad payg'ambar hayotidan qariyb 80 yil o'tgach hadislarini jamlab tadviyin (yozma qayd) etish boshlandi.

26. Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablarini ayting?

Jamiyatning o'qituvchi oldiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi;
- bolalarni mustaqillik g'oyalari sadiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vatani tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;
- keng bilimga ega bo'lish, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagog psixologiya, pedagogika, yoshlar fiziologiyasi, maktab gigenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustaqil bilimga ega bo'lib, o'z kasbi sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim-tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi kabi talablarga to'la javob bera olishga intilishi lozim va shart.

27. Pedagogik texnologiya tushunchasi fanga qachon kirib keldi?

Pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ilmiy nazariy asosi va uni amaliyotga tadbiiq etish shartlari haqida bir qancha fikr va qarashlar mavjud. Dastlab «Texnologiya» tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha «texnos»-hunar, san'at, «logos»-fan, so'zlaridan olingan bo'lib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi.

28. Tarbiya haqidagi pedagogik fikrlar, qarashlar va ta'limotlar qacda yuzaga kelgan?

Tarbiya haqidagi pedagogik fikrlar, qarashlar va ta'limotlar qadimgi Sharq mamlakatlari – Xoldey, Vavilon (Babil), Misr, Xindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuzaga kelgan. Shu boisdan eng qadimgi maktablar Sharq mamlakatlari, jumladan Xoldey, Vavilon, Misrda va Isroil shaharlarida ochilgan.

29. Qog'oz ilk bor qacda kashf qilingan?

Eramizdan avvalgi II asrda qog'oz ilk bor Xitoyda kashf etildi va ishlab chiqilgan. Keyinchalik VII asrda Samarqanda qog'oz ishlab chiqarila boshlandi va Yevropa mamlakatlariga sotilgan. XVII asrda qog'oz ishlab chiqish Yevropa mamlakatlariga ham yoyilgan. 1000 yildan buyon bo'lib kelayotgan qog'oz bosish Rossiya O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin to'xtatilgan.

30. Qadimgi Xitoyda pedagogik fikrlar, ta'limotlar qachon paydo bo'lgan?

Qadimgi Xitoyda pedagogik fikrlar, ta'limotlarning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi 2 ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi va ular asosan konfutsiylik, daosizm, Yan Chju ta'limotlarida o'z ifodasini topgan. Bu davrda Xitoyda ilk tarbiya maktablari paydo bo'lib, ularda bolalar ieroglif (belgilar orqali) o'qitilgan.

31. XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida maktab ta'limida qanday yangilikka asos solindi va uning asoschisi kim?

XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida tarixan ilk bor maktab ta'limida sinf-dars tizimini ishlab chiqqan buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiydir. U 1592 yilda Chex diniy jamoasida tegirmonchi oilasida tug'ildi, jamoadagi maktabda o'qidi. Ya.A. Komenskiyning pedagogik merosida yosh avlodni maktabda o'qitish va tarbiyalash masalasi asosiy o'rin tutgan.

32. O'zbekistonda «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qachon qabul qilindi?

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohatlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohatlar muhim o'rin tutadi. 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning 9-sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni ta'lim sohasidagi islohatlarni amalga oshirishning aniq yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim hujjatdir.

33. Kadrlar tayyorlash milliy dasturning maqsadi va vazifalari?

Mazkur dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir. Bu islohatlar kontseptsiyasi o'zagini mutaxassislar tomonidan haqli ravishda «Islom Karimov modeli» deb baholanayotgan kadrlar tayyorlashning printsiplari ya'ni milliy modeli tashkil etadi.

34. Ta'lim turlarini ayting?

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

Maktabgacha ta'lim;
Umumiy o'rta ta'lim;
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
Oliy ta'lim;
Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
Maktabdan tashqari ta'lim;

35. Kadrlar tayyorlash milliy dasturning maqsad va vazifalarini ruyobga chiqarish bosqichlari?

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich-(1997-2001 yillar)- mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy jihatdan va kadrlar jihatidan ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)-Milliy dasturni tulik ruyobga chikarish, mexnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni xisobga olgan xolda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy urta va urta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek talabalarning kobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)- tuplangan tajribani taxlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

36. Kadrlar tayyorlashning milliy modelining tarkibiy komponentlariga nimalar kiradi?

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish.

-shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh subhekti va obhekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning istehmol-chisi va ularni amalga oshiruvchi,

-davlat va jamiyat-ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni kabul kilib olishning kafillari,

-uzluksiz ta'lim-malakali raqobat-bardosh kadrlar tayyorlashning asosi bulib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

-fan-yukori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyasini ishlab chiquvchi.

-ishlab chiqarish-kadrlarga bulgan extiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiganisbatan quyiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

37. Didaktika nima?

Didaktika pedagogikaning bir qismi bo'lib, unda ta'lim nazariyasi bayon etiladi. Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, «Didayko» - o'qitish, «Didaskol» - o'rgatuvchi degan ma'noni anglatadi. Uning so'zma-so'z tarjimai Ta'lim nazariyasini bildiradi. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni, uning mohiyatini, ta'lim qoidalari, usullari hamda tashkiliy formalarini o'z ichiga oladi.

38. Didaktikaning asoschisi?

Didaktikaning asoschisi XVII asrning buyuk chex pedagog-olimi Yan Amos Komenskiydir. Yan Amos Komenskiy (1594-1670) butun dunyoda pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyotiga juda o'lgan xissa qo'shgan yetuk olimdir. Uning 1632 yilda yozgan «Buyuk didaktika» asari o'qitishni rivojlantirishga g'oyat sezilarli ta'sirini ko'rsatdi, shuning uchun ham bu asar jahon pedagogikasi oltin xazinasining noyob gavhari hisoblanadi.

Yan Amos Komenskiyning insoniyat oldidagi buyuk xizmatlaridan biri-ta'limning sinfdars sistemasini ishlab chiqishdan, dars maktabda o'qitishning asosiy shakli ekanligini asoslab berishdan iboratdir.

39. Nazariya nima?

Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi: aksioma, teorema, qonun, formula, grafik, raqam va shu kabilar. Nazariyada g'oya shakllanadi.

40. Amaliyot nima?

Amaliyot bilimlarning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba, o'zgartirish, yaratish, - bular amaliyot shakllariga kiradi. Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

41. Ta'lim jarayoni mohiyatini tushuntiring?

Jarayon – bu lotinchadan olingan bo'lib, oldinga harakat qilish tushuniladi. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Ta'lim jarayoni - o'quvchi (talaba)ning bilmaslikdan bilishga tomon, oddiydan murakkabga tomon, uncha tuliq bo'lmagan bilimdan ancha to'liq, aniqroq va chuqurroq bo'lgan bilim tomon sodir bo'ladigan jarayondir. Bu o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi.

42. Ta'lim jarayonining ikki yoqlama xarakteri?

Ta'lim jarayoni ikki faoliyat - o'qituvchi va o'quvchi (talaba) larning birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Demak, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega, chunki unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi qatnashadi. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etish uchun o'quv materialini tanlaydi va ta'limni tashkil etish yo'llarini belgilaydi. U ta'lim jarayonida o'quvchi (talaba) faoliyatini boshqaradi va rahbarlik qiladi. O'quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, ya'ni u o'qituvchi bergan bilimni o'qib, tushunib oladi

43. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha bering?

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning bilish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Hozirgi zamon maktablarida ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lgan iymonli, e'tiqodli, bilimli yoshlarni tarbiyalab berishdan iboratdir.

44. Davlat ta'lim standartlari nima?

Davlat ta'lim standartlari - umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

45. O'quv rejasi nima?

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

O'quv rejasi – davlat hujjatidir. O'quv rejalari xalq ta'lim vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi. O'quv rejalari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. Shuningdek, o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asosan tuziladi.

46. O'quv dasturi nima?

Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturi tuziladi. O'quv dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi.

47. Darslik va unga qo'yilgan talablar.

Darslik o'quv jarayonining zarur qismidir. Darslik - o'quvchilarning ikkinchi «muallimi», chunki u, avvalo o'quvchi uchun zarur qo'llanmadir.

Darslik -o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:

1. Darslikda aks etgan ilmiy bilimlar sinf o'quvchilarining yosh xususiyatiga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asosi, g'oyalari tizimli va izchil bo'lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo'lishi lozim. Shu holdagina o'quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.

4. Darslikda mavzu soda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta'riflar berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o'quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo'lmog'i zarur.

5. Mavzulardan fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

48. Dars deb nimaga aytiladi?

Dars - o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshiradi. Dars o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi.

49. Ta'lim qonuniyatlari haqida umumiy tushuncha bering.

Ma'lumki, o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan umumiy didaktik printsip (qonuniyat) larni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. Ta'lim qonuniyatlari bu - o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar yig'indisidir. Ta'lim printsip (qonuniyat) lari deb, ta'limning barcha bosqichlari va hamma predmetlarini o'qitish uchun asos bo'ladigan qonuniyatlar, qoidalariga aytamiz.

50. O'qitishning yetakchi qoidalariga nimalar kiradi?

Ta'lim qoidalari deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy

bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

Ta'lim qoidalari:

1. Ta'limning ilmiy bo'lish qoidasi.
2. Ta'limning tizimli va izchil bo'lishi qoidasi.
3. Ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi.
4. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishi qoidasi.
5. Ta'limda onglik, faollik va mustaqillik qoidasi.
6. Ta'limda ko'rsatmalilik qoidasi.
7. Ta'lim jarayonida har qaysi o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish va ta'limning o'quvchiga mos bo'lishi qoidasi.
8. Puxtalik.
9. Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri.

51. Ta'lim usullari haqida tushuncha bering? Ta'lim jarayonida to'g'ri usul tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo'l bilan erisha olamiz. **Ta'lim** usuli deganda, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

52. Ta'lim usullarining turlari?

Ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan holda o'qitish usullarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganamiz.

1. Ta'limning og'zaki usullari.
2. Ta'limning ko'rgazmali usullari.
3. Ta'limning amaliy usullari.
4. Ta'limning muammoli-izlanish va reproduktiv usuli.
5. Ta'limning induktiv va deduktiv usuli.
6. O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini rag'batlantirish va tanbeh berish usullari.
7. O'qitishda nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish usuli.
8. Kitob bilan ishlash usuli.

53. Ta'limning og'zaki usullari ga tavsif bering?

O'qitishning og'zaki usullari ta'limda doimo eng ko'p qo'llanib kelinmoqda. Didaktikada o'qitishning og'zaki usullari uch turga: o'qituvchining hikoyasi, suhbat va maktab ma'ruzasiga ajratiladi.

54. Ta'limning amaliy usullariga tavsif bering?

O'qitishning amaliy usullariga yozma mashqlar (masalalar yechish, chizmalar tayyorlash), tajriba – laboratoriya tipidagi mashqlar (frontal tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyot, o'qitishning texnik vositalari va boshqalar); mehnat topshiriqlarini bajarish usullari kiradi. Amaliy metodlar o'qitishning og'zaki va ko'rsatmali metodlari bilan uzviy birlikda qullaniladi.

55. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?

O'quv faoliyatini rag'batlantirish deb kishining aktiv faoliyatga bo'lgan tashqi mayliga aytiladi. Shu boisdan rag'batlantirish - o'qituvchi faoliyatining muhim omili hisoblanadi. Ammo rag'batlantirish kishining faoliyatga bo'lgan ichki mayliga ta'sir qilgandagina real maqsad sari undaydigan kuchga aylanadi. O'qishga qiziqishni rag'batlantirish turlaridan biri - o'qishda ma'lum qiyinchilik sezayotgan o'quvchilarga muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishdir. Rag'batlantirish o'quvchi-talabaning ko'nglini ko'taradi, unga quvonch keltiradi va uni yanada yaxshiroq o'qishga undaydi.

56. O'qitishni tashkil etish shakllari haqida tushuncha tushuncha bering.

Maktabning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari turlicha bo'lgan. Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan.

Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli ya'ni dars necha yillardan beri takomillashib, unga qo'yilgan talablar murakkablashib va zamonaviylashib bormoqda.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.

57. Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad nima?

Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad – ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdir. Buning uchun:

a) o'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni o'qitirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. Ya'ni o'qituvchi bayon qilayotgan mavzu o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim;

b) Ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni ham, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash juda muhimdir.

58. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllariga nimalar kiradi?

Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishning shakl va usullari tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati;
- talabalarning o'quv va bilish faoliyati.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv ishlari va bilim berishning tashkiliy shakllari «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga asosan olib boriladi.

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni shakllariga ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv anjumanlar, maslahatlar, ekskursiya, ekspeditsiya, o'quv ishlab chiqarish pedagogik amaliyoti, kurs va diplom ishlari, talabalarning mustaqil ta'limi kabilar kiradi.

59. Tarbiya jarayonining mohiyati.

Tarbiya ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda o'ziga xos qonuniyatlarga ega. Ta'lim-tarbiya yaxlit pedagogik jarayondir. Lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Tarbiya jarayoni murakkab jarayon bo'lib, u uzoq davom etadi hamda uning natijasini ko'rish qiyinroq kechadi. Bolalarni tarbiyalash ular tug'ilgan vaqtdan boshlanadi va muntazam ravishda ta'lim berish bilan birga olib boriladi. Bolaning o'sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi.

60. O'z-o'zini tarbiyalash nima?

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash bilan mustahkam bog'langan. O'z-o'zini tarbiyalash kishining o'z shaxsini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatidir. O'z-o'zini tarbiyalash to'g'ri tarbiya berish bilan birga sodir bo'ladi va ayni vaqtda to'g'ri tarbiya natijasi hisoblanadi.

O'z-o'zini tarbiyalashning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun har bir kishi o'z-o'zini to'g'ri baholay bilishga o'rganishi, hayotda o'zi intilishi lozim bo'lgan idealni aniq tushungan holda o'zidagi ijobiy sifatlarni va mavjud kamchiliklarni ko'ra olishi muhim ahamiyatga ega.

61. Tarbiya qonuniyatlari va qoidalariga izoh bering.

Tarbiya qoidasi-pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog'liqligi qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi, tarbiyada o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar.

62. Komillik necha bosqichdan iborat?

Komillik uch bosqichdan iborat:

1. jismoniy salomatlik;
2. axloqiy poklik;
3. aqliy yetuklik.

Bu bosqichlarni shakllantirishda mustaqil fikrlash yetakchi o'rin egallaydi.

63. Tarbiya usullari haqida tushucha berin?

Tarbiya usullari - o'qituvchi, tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir. Aniqrog'i, tarbiya usuli deb tarbiyachining bolalarda axloq-odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta'sir etish yo'llariga aytiladi. Tarbiya usullari tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan.

65. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Pedagogika shaxsning kamolotga etishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning shaklanishi, kamolga etishida nasl-irsiyat (biologik), ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

66. Axloq nima?

Axloq - ijtimoiy ong shakli bo'lib, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonning xulq - atvorini yo'lga solib turadigan talablar, normalar va qoidalaridan iboratdir. Jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlari, rivojlanishi bilan birgalikda axloq o'zgarib va rivojlanib boradi.

67. O'quv loyihasi, o'qitish jarayonini loyihalashtirish deganda nima nazarda tutiladi ?

Loyiha (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g'oya, ma'lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo'llarini belgilab beruvchi g'oyalar, fikrlar, obrazlardir.

O'quv loyihasi – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta'lim oluvchilar tomonidan amalga tadbqiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir. O'qitishni loyihalash esa ta'limning umumiy maqsadi, mazmuni o'quv maqsadlari o'qish, o'qitish, o'zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

68. O'quv jarayoni qanday o'qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan?

Ma'lumki, o'quv jarayoni 3 ta bir-biri bilan bog'liq o'qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.

1. Motivlar. (M)
2. O'quvchining o'qish faoliyati. (O'F)
3. O'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati. (B)

Shunday qilib, o'quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin.
O'J=M+O'F+B

69. Pedagogik faoliyat deganda nimani tushunasiz?

Pedagogik faoliyat – yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Pedagogik faoliyat, u bilan kimlar shug'ullanishlari xususida O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunining 5-moddasida quyidagicha izoh berilgan:

«Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadir. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi».

70. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarni aytib bering?

1. O'qituvchi hozirgi zamon talablariga javob beradigan yuksak axloqiy-ma'naviy sifatlarga ega bo'lgan, chuqur bilim va mahorat egasi bo'lishi lozim.

2. Vatan tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur biladigan, ma'naviy komil inson bo'lishi;

3. O'z fani doirasida chuqur bilimga ega bo'lgan, fanlararo aloqalarni yaxshi bilish va uni o'quvchilarga o'rgatish;

4. Pedagogik texnologiyani yaxshi biladigan, uning yangi-yangi yo'llarini yarata oladigan, izlanuvchan, ijodiy ishlaydigan pedagogik mahorat egasi bo'lish;

5. Pedagogik muomala madaniyatini yaxshi egallagan, o'z hissiyotini idora qiladigan, sabotli bo'lishi, pedagogik etika qoidalariga amal qiladigan bo'lishi;

6. Dunyo taraqqiyoti darajasidagi bilimlardan xabardor, ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson bo'lishi;

7. Bolalarni sevishi va ularning kelajagi uchun qayg'uradigan, istiqbolini o'ylab ish ko'ra biladigan mohir inson bo'lmog'i lozim;

8. Nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

Xullas, har bir o'qituvchi o'z ustida tinmay ishlashi kerak hamda barcha sohada chuqur bilimli bo'lishi talab etiladi

71. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risida Qonunining tarkibiy tuzilishini aytib bering?

Besh bo'lim va 34 moddadan iborat

I. Umumiy qoidalar (1-8-moddalar)

II. Ta'lim tizimi va turlari (9-19-moddalar)

III. Ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy ximoya qilish (20-24-moddalar)

IV. Ta'lim tizimini boshqarish (25-29-moddalar)

V. Yakunlovchi xulosalar (30-34-moddalar)

72. Ushbu Qonunning birinchi moddasi qanday nomlanadi?

1-modda. «Ushbu Qonunning maqsadi» deb nomlanadi.

73. Ta'lim to'g'risidagi Qonunning maqsadi nima?

Ushbu Qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-xunar o'rgatishning xuquqiy asoslarini belgilaydi xamda xar kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy xuquqini ta'minlashga qaratilgan.

74. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi Ta'lim to'g'risidagi Qonunning qaysi moddasi bilan kafolatlanadi va uning mazmunini ayting?

5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqi

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud xukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

75. O'zbekiston Respublikasida qanday ta'lim turlari mavjud?

- maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

76. Malakaviy amaliyot nima?

Nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, mustaqil tajriba o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida talabalar o'tkazadigan amaliy ish turi hisoblanadi.

77. Attestasiya deganda nimani tushunasiz?

Attestasiya bu- Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik sifati va darajasini, Davlat ta'lim standartlari talablari mazmuniga mosligini belgilovchi jarayon.

78. Oliy ta'limga izoh bering?

Oliy ta'lim - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus kasb-xunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi xujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

79. Tarbiyada rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?

- Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini ko'taradi, unga quvonch keltiradi, o'quvchini yanada yaxshiroqbo'lishga intilishiga yordam beradi. Rag'batlantirishning quyidagi turlari mavjud:

1. O'quvchining kuchi yetadigan, mas'uliyatli topshiriq berish bilan bolaga ishonch bildirish;
2. Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
3. Esdalik sovg'alar berish;
4. Maqtov yorlig'i berish;
5. Stipendiya bilan taqdirlash (davlat stipendiyalari, ustama stipendiyalar);
6. Faollar oynasiga fotosuratini qo'yish;
7. Mas'uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
8. Musobaqalarda bayroq ko'tarish;
9. Gazetada, radioda e'lon va h.k.

80. Jazolash nima?

Jazolash – bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo o'quvchi-bola tarbiyasida qo'llanadigan oxirgi tarbiya usulidir. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqitish va g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qo'rqqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi.

Tarbiyaning jazo usuli choralarga quyidagilar kiradi: tanbeh berish, ogohlantirish, hayfsan berish, uyaltirish va jamoaviy jazolardir.

81. Tanbeh berish nima?

Tanbeh berish – eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish ham mumkin.

Ogohlantirish – noma'qul hatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Hayfsan berish – agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, salbiy holatlarni takrorlayversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomini qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

82. Shaxs shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ayting?

Shaxs shakllanishi va rivojlanishiga to'rtta omil ta'sir etadi. Ular quyidagilar:

- irsiyat (biologik omil);
- muhit;
- ta'lim-tarbiya;
- shaxsning mustaqil faoliyati.

83. Tarbiyaning tarkibiy qismlarini ayting?

Aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, nafosat tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya, ekologik tarbiya va h.k.

84. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash deganda nimani tushunasiz?

- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish xamda yangilashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi

85. «Magistr» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- Magistr» so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «Boshliq» degan ma'noni anglatadi.

86. Qayta tayyorlashning turlari?

- Pedagogik;
- Kasbiy.

87. Oliy ta'lim qaysi ta'lim negiziga asoslanadi?

- Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limiga.

88. Pedagogik qayta tayyorlash bu - ...

- Pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va etarli bo'lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida mutaxassislarni qayta tayyorlashdir.

89. Pedagog munosabati deganda nimani tushunasiz?

Pedagog munosabati - pedagogning o'quvchi-talabalar bilan tarbiya maqsadida aloqa o'rnatishidir.

90. Vatanparvarlik nima?

- Vatanga muhabbat, mamlakat manfaatlari xaqida g'amxo'rlik, Vatan himoyasiga tayyor turish, o'z mamlakatining ijtimoiy va madaniy yutuqlari bilan faxrlanish, Vatanniig tarixiy o'tmishiga va uning an'alariga hurmat tuyg'ularini o'z ichiga oladi.

91. Fan dasturining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

Dasturning asosiy vazifasi - o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo'linish, ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limning mazmunini o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi.

92. Mehnat tarbiyasining vazifalarini ayting?

- Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga amaliy tayyorlashning juda ko'p tomonlarini qamrab oladi. Mehnat tarbiyasining eng muhim vazifasi yosh avlodni mehnat qilish xohishini, havasini, intilishini, ko'nikma va mahoratni ularda shakllantirishdan iborat.

93. Ekologik ta'lim deganda nimani tushunasiz?

- Ekologik ta'lim deganda aholiga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

94. Ekologik tarbiya deganda nimani tushunasiz?

- Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham turli yoshdagi kishilarda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

96. O'quv mashg'ulotini loyihalashtirishda o'qituvchi asosiy vazifasi?

- O'quv mashg'ulotini loyihalashtirishda o'qituvchi, avvalo, o'qitish jarayonini tahlil qilishi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil o'qish bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o'rgatishi, o'zlashtirilgan bilimlarni ko'nikmalarga aylantirish uchun o'quv mavzulari bo'yicha metodik tizimni yaratadi, o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mazmunini ishlab chiqadi.

97. O'quv loyihasi, o'qitish jarayonini loyihalashtirish deganda nima nazarda tutiladi ?

Loyiha (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g'oya, ma'lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo'llarini belgilab beruvchi g'oyalar, fikrlar, obrazlardir.

O'quv loyihasi – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta'lim oluvchilar tomonidan amalga tadbqiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik ish turidir.

98. Dars va unga qo'yilgan talablar?

Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'log'i lozim.
3. Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i, shuningdek xilma xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.
4. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq zarur.
5. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.
6. Darsda o'quv materialining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.
7. Darsda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

99. O'qituvchining bilish qobiliyatini izohlab bering?

Bilish qobiliyati - fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, iqtisod, adabiyot va hokozolarga doir) qobiliyatlardir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini bajara oladi.

100. Pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy fazilatlarga nimialar kiradi?

- Axloqiy fazilatlarga: Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi obro'sini oshiradi va pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmat, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi, halolligi, pokligi, rostgo'yliги kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi.

Oraliq va Yakuniy nazoratlar bo'yicha (yozma ish)

SAVOLLARI MAJMUASI

1. Pedagogika fanining predmeti va uni o'rganish usullari (fanning maqsadi, mazmuni, predmeti, asosiy tushunchalari)
2. Pedagogika inson tarbiyasi to'g'risidagi fan (pedagogika, «paydagogika», asosiy kategoriyalar, ta'lim, tarbiya, ma'lumot, irsiyat, shaxs kamoloti).
3. Pedagogika fanlari tizimi (pedagogikaning tarmoqlari, umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, xususiy metodika, maktabgacha tarbiya, harbiy, oila va maxsus pedagogika).
4. Ta'lim jarayoni mohiyati (ta'lim jarayonining ikki yoqlama xarakteri, o'qituvchi va o'quvchi (talaba) faoliyati).
5. Tarbiya qonuniyatlari (shaxsni hurmat qilish, tarbiyaning bir maqsadga karatilganligi, izchillik, o'quvchining yoshi va uziga xos xususiyatlari).
6. Tarbiya usul (metod) lari (tushuntirish, suhbat, hikoya).
7. Tarbiyaning ijtimoiy axloqni shakllantirish metodlari (mashq, o'rganish, topshiriq).
8. Tarbiyaning rag'batlantirish metodi (maslahat, istiqbolni tasvirlash, maqtov, namuna qilib ko'rsatish).
9. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari haqida tushuncha (ilmiy tadqiqot usullari, ularga qo'yilgan talablar, kuzatish, suhbat, anketa, kibernetika, matematik, sosiologik metodlar).
10. Huquqiy tarbiya va uning mohiyati. (tarbiyaviy ish, huquqiy bilim va savodxonlik.)
11. Tarbiyaning o'z-o'zini tarbiyalash metodi (o'z-o'zini boshqarish, tarbiyalash, tankid, o'z-o'zini tanqid).
12. O'qitishning muammoli metodiga xarakteristika (muammoli vaziyatni yaratish usullari).
13. Axloq-odob tarbiyasi (axloqiy tarbiya, tarbiyaning vazifasi va mazmuni, buyuk allomalarni tarbiyaviy qarashlari).
14. Tarbiya usullari (ibrat, namuna, ishontirish, tushuntirish, o'qtirish).
15. Pedagogika fanining asosiy (kategoriya) tushunchalari (fanning maqsadi va vazifasi, ta'lim, tarbiya, ma'lumot, shaxsning kamol topishi).
16. Mutaxassisning pedagogik odobi (taktika, muomala madaniyati, kamtarinlik, intizom va hamjihatlilik).

17. Boshqaruv pedagogikasi asoslari (ta'lim tizimini boshqarish, Vazirlar Mahkamasi vakolatlari, boshqarish tizimi, kadrlarni malakasini oshirish)
18. Mutaxassisning tarbiyachilik mahorati (ruhiyat, mahorat, siyosiy madaniyat).
19. Pedagogika fanlar tizimi va uning boshqa fanlar bilan aloqasi (fanning ob'ekti, fanlar tizimi, maxsus pedagogika, fanlar bilan aloqasi).
20. Yuksak madaniyatli mutaxassis va uning axloqiy sifatlarini tarbiyalash (Oila, maktab va jamoatchilikning tutgan o'rni)
21. Tarbiya qoidalari (tarbiyaning maqsadi, ta'lim va tarbiyaning birligi, tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi).
22. Tarbiyada milliy udum va odatlar (odat, marosim, milliy urf-odat, Markaziy Osiyo mutafakkirlari milliy sharqona tarbiya mezonlari haqida).
23. Ta'limni tashkil etish shakllari (sinf-dars tizimining vujudga kelishi, dars, darsga qo'yilgan talablar)
24. Mutaxassis xarakteridagi odatlar (ijodkorlik, xushchaqchaqlik, madaniyatlilik, xushmuomalalik).
25. Mehnat tarbiyasi (mehnat tarbiyasining mohiyati, oilada mehnat tarbiyasi).
26. Irodani tarbiyalash (xarakter, o'z-o'zini nazorat, o'ziga-o'zi baho berish).
27. Nafosat tarbiyasi (did, badiyat qonunlari, farosat, dunyoqarash).
28. Mutaxassisning o'z ustida mustaqil ishlashining ahamiyati (Kitob, oynoma, kundalik gazeta va axborotlar ustida ishlashi).
29. Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari (metod, pedagogik kuzatish, so'rash, so'rovnoma, tadqiqot metodlari).
30. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va uni ruyobga chiqarish bosqichlari (Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalari, milliy model, shaxs, davlat va jamiyat).
31. O'qitishning amaliy metodi (nazariy bilimlarni amalda qo'llash, mashqlar va mantiqiy topshiriqlar).
32. Mutaxassis modeli va unga qo'yilgan pedagogik talablar (kasb, kasbga xos sifatlar, kasbni sevis, obro', ziyraklik, nazokat, ishbilarmonlik, ijodkorlik, talabchanlik).
33. Milliy sharqona tarbiya mezonlari (milliy tarbiya milliy qadriyatlar, milliy g'urur, milliy odob, vijdoniylik).
34. Didaktika, uning mohiyati va tamoyillari (didaktika, ta'lim nazariyasi, ta'lim jarayoni, ta'lim-tarbiya, ilmiy, faollik)
35. Shaxsda axloqiy sifatlarni shakllantirishda umuminsoniy va milliy qadriyatlardan foydalanish (ma'ruza, suxbat va ilmiy anjumanlar o'tkazish milliy qadriyatlar va merosimizni o'rganishning vositasi ekanligi).
36. Uzlaksiz ta'lim turlari va unda mutaxassislar tayyorlash masalalari (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi).
37. Ta'limning og'zaki metodlari (tushuntirish, hikoya, suhbat, savol-javob).
38. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari (ilmiy tadqiqot usullari, kuzatish, suhbat usuli, eksperiment, test-so'rovnomalalar usuli).
39. Pedagogik faoliyat va u bilan shug'ullanish (o'qituvchi shaxsi, pedagogik faoliyat, shug'ullanish huquqi, o'qituvchiga qo'yilgan talablar).
40. Shaxs shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar (irsiyat, ta'lim-tarbiya, muhit, shaxsning mustaqil faoliyati).
41. Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari (kuzatish, anketa, eksperiment, so'rovnoma)
42. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsadi va mazmuni (ta'lim islohatlari, dastur mazmuni, maqsadi, vazifalari, milliy model)
43. Ta'lim nazariya va ta'lim jarayoni (ta'lim, o'qitish, ta'lim jarayoni, uning ikki yoqlama xususiyati, ta'lim mazmuni)
45. Mutaxassisning axloqiy sifatleri (adolatli bo'lish, muomala odobi, madaniyatlilik, xushmuomala, yaxshilik, xalollik, mas'uliyat)

46. O'zbekistonda fan va maorifning rivojlanishida «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ahamiyati (ta'lim sohasidagi islohatlar, milliy dastur maqsadi, Ta'lim to'g'risidagi Qonuni vazifalari, moddolari, milliy model, uzluksiz ta'lim)
47. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha (ta'lim, o'qitish, ta'lim standarti, o'quv rejasi, dastur, darslik)
48. Yoshlarni oilada va maktabda tarbiyalash (tarbiya, tarbiyaviy ish, axloqiy tarbiya jarayoni, tarbiyada oila va maktab, jamoatchilik hamkorligi)
49. Muammoli ta'limning maqsad va mohiyati (ta'lim jarayoni, muammoli vaziyat yaratish, muammoli ma'ruza, savol-javob).
50. Mutaxassis mahorati va uning pedagogik odobi (mutaxassis faoliyati, mahorat, uni egallash yo'llari, muomala madaniyati, o'z ustida ishlashi)
51. Pedagog shaxsi va uning ijtimoiy tabiati (pedagogik faoliyat, o'qish, o'qitish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, o'qituvchining kasbiy sifatleri)
52. Tarbiya usul (metod) lari (tushuntirish, suhbat, hikoya, namuna).
53. Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari (Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya, pedagogik qarashlar, Qadimgi Xitoyda ta'lim-tarbiya, Konfutsiylik).
54. Ta'lim jarayonining mohiyati (ta'lim, o'qitish, ta'lim jarayonining ikki tomonlama xususiyati, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati)
55. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va uni ruyobga chiqarish bosqichlari (Milliy dastur maqsad va vazifalari, milliy model, shaxs, davlat va jamiyat).
56. Ta'limning og'zaki usullari (tushuntirish, hikoya, suhbat, savol-javob, o'quv ma'ruzasi).
57. Didaktika, uning mohiyati va tamoyillari (didaktika, ta'lim nazariyasi, ta'lim jarayoni, ta'lim-tarbiya, ilmiy, faollik)
58. Ta'limda texnik vositalardan foydalanish (ta'lim berish, texnik vositalar, kompyuter, o'qituvchi, o'quvchi, masofaviy ta'lim)
59. Mehnat tarbiyasi (mehnat tarbiyasining mohiyati, oilada mehnat tarbiyasi)
60. Muammoli ta'limning maqsad va mohiyati (muammoli ta'lim, maqsadi, muammoli vaziyat yaratish)
61. Oliy o'quv yurtida o'qitishning tashkiliy shakllari (ta'lim mazmuni, o'qitish shakllari, ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, ekskursiya, kurs ishi, laboratoriya mashg'uloti)
62. Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari (qonuniyat, o'qitish qoidalari, ta'limning ilmiy, tizimli va izchil bulishi, tarbiyalovchilik xarakteri, onglik, faollik va ko'rsatmalilik).
63. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat asoslari (pedagogik texnologiya, o'qituvchi va texnik vositalar, o'qituvchi mahorati, pedagogik mahoratni egallash yo'llari).
64. Tarbiya qonuniyatlari (shaxsni hurmat qilish, tarbiyaning bir maksadga karatilganligi, izchillik, o'quvchining yoshi va uziga xos xususiyatlari).
65. Oliy ta'lim - yukori malakali mutaxassis tayyorlovchi muassasa (oliy ta'lim, mazmuni, maksadi, bakalavriat va magistratura, ikkinchi oliy ma'lumot olish)
66. Pedagogikaning asosiy (kategoriya) tushunchalari (ta'lim, tarbiya, ma'lumot, shaxsning shakllanishi, usul, muxit, o'qituvchi)
67. O'qitishning og'zaki usullari (hikoya, o'quv ma'ruzasi, suhbat)
68. Ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari (o'qitish, sinf-dars tizimi, dars, unga quyilgan talablar, dars turlari)
69. Shaxs shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar (irsiyat, ta'lim-tarbiya, muxit, shaxsning mustaqil faoliyati).
70. Tarbiyaning ragbatlantirish metodi (maslaxat, istikbolni tasvirlash, maqtov, namuna kilib kursatish).
71. Pedagogik mahorat asoslari. (pedagogik faoliyat va mahorat, pedagogik mahoratni egallash yo'llari, o'qish, o'rganish, izlanish, pedagog munosabati)
72. Tarbiyaning mohiyati va vazifalari (tarbiya jarayoni, inson tarbiyasi, tarbiyaning maqsadi, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash)
73. Ta'lim jarayoni mohiyati va uning ikki tomonlama xususiyati (o'quv jarayoni, dars, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, boshqarish).

74. Yoshlarni oilada va maktabda tarbiyalash (milliy tarbiya mezonlari, oila va maktab hamkorligi)
75. Axloq-odob tarbiyasi (axloqiy tarbiya, tarbiyaning vazifasi va mazmuni, buyuk allomalarni tarbiyaviy karashlari).
76. Tarbiyaning umumiy usullari (tarbiya, usul, tushuntirish, namuna, nasihat, rag'batlantirish, jazolash).
77. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va uni ruyobga chikarish boskichlari (Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maksad va vazifalari, milliy model, shaxs, davlat va jamiyat).
78. Mehnat tarbiyasi (mehnat tarbiyasining mohiyati, oilada mehnat tarbiyasi).
79. Ta'limni tashkil etish shakllari (sinf-dars tizimining vujudga kelishi, dars, darsga kuyilgan talablar)
80. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim tug'risidagi Qonuni (maqsadi, vazifalari, ta'lim moddolari)
81. Oliy maktabda o'qitishning tashkiliy shakllari (oliy ta'lim, o'quv jarayoni shakllari, ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'uloti)
82. Ta'limning ko'rgazmali usullari (ta'lim usullari, ko'rgazmalilik, tabiiy va tasviriy ko'rgazmali qurollar, illyustratsiya materiallari)
83. Pedagogik faoliyat va pedagogik qobiliyat (o'qituvchi shaxsi, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, turlari)
84. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar (pedagog shaxsi, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, o'qituvchiga qo'yilgan talablar, kasbiy bilimdonlik, pedagogik texnika).
85. Ilmiy dunyoqarash va uni shakllantirish (dunyoqarash, ilmiy dunyoqarash, qarashlar, e'tiqod).
86. Milliy pedagogikaning rivojlanish tarixi (milliy pedagogika, pedagogik qarashlar, «Avesto», «Alpomish» dostonlari, hadislarda ta'lim-tarbiyaviy qarashlar).
87. Tarbiya jarayoni va tarbiyaviy ish (tarbiya, maqsad va vazifalari, tarbiya jarayoni, tarbiya usullari)
88. Shaxsning shakllanishi va kamol topishida irsiyat va muhitning roli (shaxsning shakllanishi, ta'sir etuvchi omillar, irsiyat, muhit, aloqadorligi).
89. G'arb pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlari (ilk pedagogik qarashlar, tarbiya maktablari, mutafakkirlarning tarbiyaviy asarlari)
90. Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari (qonuniyat, o'qitish qoidalari, ilmiylik, ko'rsatmalilik, izchillik, faollik va ongliklik qoidalari).
91. Didaktikaning predmeti va vazifalari (ta'lim nazariyasi, didaktika, predmeti, ob'ekti, ta'lim jarayoni).
92. Pedagogik qobiliyat va uning turlari (pedagogik qobiliyat, bilish qobiliyati, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik).
93. Hadislar va ularda ta'lim-tarbiya masalalari (islom dini, hadis ilmi, hadisshunoslik, hadislarda ta'lim-tarbiyaviy qarashlar).
94. Ta'lim nazariyasi va ta'lim jarayoni (didaktika, ta'lim nazariyasi, predmeti, ob'ekti, ta'lim jarayoni, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati).
95. Tarbiyada rahbatlantirish va jazolash usullari (tarbiya usuli, rag'batlantirish, maqtash, ma'suliyat, jazolash, tanbeh berish, xayfsan).
96. Pedagogika inson tarbiyasi haqidagi fan (pedagogika, ta'lim, tarbiya, pedagogika fanlar tizimi, Sharq allomalarining pedagogik fikr va qarashlari)
97. Oliy ta'lim - yuqori malakali mutaxassis tayyorlovchi muassasa (oliy ta'lim, mazmuni, maqsadi, bakalavriat va magistratura, ikkinchi oliy ma'lumot olish)
98. O'qitishning yetakchi qoidalari (таълим қонуниятлари, ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lish qoidasi, ko'rsatmalilik qoidasi va ta'limda o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish)
99. Ta'limni tashkil etish shakllari (sinf-dars, darsga bo'lgan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar)
100. Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. (ta'lim mazmuni, Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari).

Oraliq va Yakuniy nazoratlar bo'yicha TEST SAVOLLARI

M A J M U A S I

1. Pedagogika fanining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

- A) ta'limga oid insoniyatning boy merosidan, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz foydalanib, nazariy bilimlarni mukammallashtirish;
- V)* tarbiyaga oid insoniyatning boy ma'naviy xazinasidan munosib o'rin olgan tarixiy milliy ma'daniy merosimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga benixoya katta hurmat – e'tibor va ehtirom bilan karash va ulardan o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda samarali foydalanish.
- S) ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda rivojlanish, shaxsning aqliy va jismoniy takomillashish faoliyatlarining uyushtirishni pedagogik vositalarini aniqlash;
- D) mutaxassis sifatida pedagogik qonuniyatlarni, printsiplarni, didaktik asoslarni bilish, an'anaviy va noan'anaviy sharoitda o'zgaruvchan ta'lim muhitida ularni qullash, muammolarni hal etishda optimal yo'llarni oldindan ko'ra bilish, hal etish usullarini egallash, o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodlarini ishlab chikish.

2. «Pedagogika» so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A)«o'rgatish» ma'nosini anglatadi;
- V) «o'qitish» ma'nosini anglatadi;
- S) «ta'lim – tarbiya berish» ma'nosini anglatadi;
